

TARBIYA FANINI O'QITISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Mirzamurodova Munosibxon Mo'ydinovna

*Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani
39-maktab tarbiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarbiya faning O'zbekistonda tashkil etilishi hamda uni o'quvchilarga o'qitishning metodologik asoslari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. shuningdek maqolada, tarbiya fanini o'qitishdagi me'yoriy hujjatlar tahlili ham yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Tarbiya, nazariya, fan, asos, me'yor, hujjat, o'qitish, zaruriyat, qaror, bilim, ko'nikma, uquv, kompetensiya, amaliyot.*

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ ОБРАЗОВАНИЯ

Мирзамуродова Муносибхон Муйдиновна

*Ферганская область, Узбекистан район
Школа № 39 Педагог образования*

Аннотация: *В данной статье рассматривается организация образования в Узбекистане и методические основы преподавания его учащимся. в статье также проводится анализ нормативных документов в педагогическом образовании.*

Ключевые слова: *образование, теория, наука, основа, стандарт, документ, учение, необходимость, решение, знание, умение, обучение, компетенция, практика.*

METHODOLOGICAL BASIS OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION

Mirzamurodova Munosibkhon Muydinovna

*Fergana region, Uzbekistan district
39th grade education teacher*

Abstract: *This article discusses the organization of education in Uzbekistan and the methodological basis of teaching it to students. the article also covers the analysis of normative documents in the teaching of education.*

Key words: *Education, theory, science, basis, standard, document, teaching, necessity, decision, knowledge, skill, training, competence, practice.*

Maktab ta'limi asoslaridan biri tarbiya masalasidir. Tarbiya-shaxsda muayyan jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.[1,12] Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida qo'llaniladigan chora-tadbirlar majmuasi tarbiyani tashkil qiladi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda "tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi.² Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar va intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari va san'atning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi va estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunda oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tarbiya ishini amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki, axloqiy-ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga uchraydi. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar qatorida tarbiya ham rivojlanib boradi.

Tarbiya nazariyasining umumiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- tarbiyaning nazariy asoslari;
- tarbiya didaktikasi;

- tarbiya amaliyoti.

Mazkur masalalar tarbiya nazariyasining negizi sifatida O'zbekistonda ta'sis etilgan yangi "Tarbiya" fani asoslarini tashkil etadi. Shu sababli jamiyatda tarbiyaning o'rni, ahamiyati va amaliyoti odamlar tomonidan yetarli darajada idrok etilmoqda. Mazkur masala bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari nazariy bilim, kasbiy ko'nikma va amaliy kompetensiyalar bilan qurollanishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda yangi fan "Tarbiya" asoslari bo'yicha maqsadli bilim berish, tarbiyaning yangi metodlari va texnologiyalari bilan qurollantirish dolzarb bo'lib turibdi. Shu sababli mazkur yangi tipdagi elektron-modulli darslikning materiallariga diqqat qilish tavsiya etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020-yilda o'zbek "Pedagogika" fani tarixida ilk bor "Tarbiya" yangi fani ishlab chiqildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-sonli "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi va mazkur Qaror bilan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani Kontsepsiyasi" tasdiqlandi. Qarorga binoan "Tarbiya" fani amaldagi quyidagi fanlarni qo'shish hisobiga tashkil etildi:

1. boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "Odobnoma" va "Vatan tuyg'usi" o'quv fanlari;
2. yuqori sinflarda o'qitiladigan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslar" hamda "Dunyo dinlari tarixi" o'quv fanlari.

Buning natijasida yangi fan shakllantirildi. Ushbu "Tarbiya" fanining metodologik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- ta'lim-tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlar;
- tarbiya asoslari va manbalari;
- tarbiya qonuniyatlari, metodlari va texnologiyalari;
- tarbiyaning amaliy masalalari.

Aynan mazkur asoslar o'quv fanining negizini tashkil etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu asoslarni talab darajasida o'zlashtirishi kerak. Aks holda, ularning mazkur fan metodikasi bo'yicha kasbiy tayyorgarligi talab darajasida bo'lmaydi. Shuningdek, qaror bilan 2021-2022 o'quv yilidan boshlab "Tarbiya" fani bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

"Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani Kontsepsiyasi"ga ko'ra, mazkur fanning umumiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- huquqiy asoslar;
- tashkiliy asoslar;
- ilmiy-metodik asoslar.

Bunda huquqiy asoslar ta'lim-tarbiyaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlardan iborat, tashkiliy asoslar fanni umumta'lim maktablarida, jumladan, boshlang'ich ta'limda talab darajasida o'qitishni va ilmiy-metodik asoslar esa fanning metodologiyasini anglatadi. Qarorga ko'ra, "Tarbiya" fanining asosiy tamoyillarini quyidagilar tashkil etadi:

- a) milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- b) ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish;
- v) fanga oid zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish;
- g) ochiqlik va shaffoflik;

d) tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

e) tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va hususiy sektor faoliyatining muvofiqligi hamda mutanosibligi.

Bo'lajak o'qituvchilarining fanga oid bu tamoyillarini chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida, tarbiyaviy tadbirlarda va mustaqil ta'lim izlanishlarida ana shu tamoyillarni o'zlashtirish, faoliyatda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish hamda kasbiy faoliyatda ularga amal qilish kompetentsiyasini egallash dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun har bir talabaning individual shug'ullanishi, Ustozlar bilan hamkorlikda faol ishlashi va tarbiya tamoyillarining hayotdagi ifodasini o'rganib borishi taqozo etiladi. Bunda oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlari, ta'lim jarayonining sharoitlari va faoliyatning amaliy samaradorligidan oqilona foydalanish kerak. Har bir talabaning mazkur fan tamoyillarini, asoslarini va istiqbolli maqsad-muddaolarini o'zlashtirishi kasbiy tayyorgarlikning negizlaridan biri hisoblanadi.

"Tarbiya" fanini o'qitish zaruriyati. O'zbekiston ta'lim tizimida, jumladan, oliy ta'lim jarayonida "Tarbiya" fani asoslarini zamonaviy talablar asosida o'qitish va o'rganish zaruriyat hisoblanadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur fanni o'zlashtirish va uni o'qitishning metodikasini o'rganish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- fanning asoslarini chuqur bilish;
- fanni o'qitishning ilg'or va zamonaviy pedagogik, innovatsion hamda axborot texnologiyalarini egallash;
- tarbiya masalasiga doir ilmiy-tadqiqotlarni o'rganib borish;

- inson va jamiyat hayotida tarbiyaning tutgan o'rnini to'liq idrok etish;
- fan vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash metodlari va texnologiyalarini bilish;
- fanni o'qitish bo'yicha individual pedagogik tajribaga ega bo'lish.

Mazkur fanni o'rganish zaruriyati ilmiy, metodologik va amaliy jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kasbiy talablardan hisoblanadi. Chunki bu fan gumanitar fanlar ichida tarbiya jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish va samaradorligini o'rganib borish ishlarini muvofiqlashtiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Milliy o'quv dasturi" talablariga asosan o'qitiladigan fanlar aniq, tabiiy va gumanitar fanlar turkumiga ajratiladi. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablari, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda tarbiyaning mazmuni nisbatan o'zgaradi. Unga ko'ra, quyidagicha yondashuv amalga kiritilishi mo'ljallanmoqda:

A) aniq fanlar: Matematika va uning takibiga kiruvchi fanlarni o'qitish vositasida o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish bilan tarbiya jarayoni amalga oshiriladi;

B) tabiiy fanlar: Boshlang'ich ta'limda "Atrofimizdagi olam", "Tabiatshunoslik"(Science) fanlarini o'qitish vositasida o'quvchilarning mustaqil qarashlari, xohish va istaklarini to'g'ri tarbiyalash amalga oshiriladi;

V) gumanitar fanlar: "Tarbiya", "Ona tili va o'qish", "Musiqqa", "Jismoniy tarbiya", "Tasviriy san'at" fanlarini o'qitish vositasida o'quvchilarning aqliy, jismoniy va estetik tarbiyasi amalga oshiriladi.

E'tibor berilsa, bundan keyin boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoni umumta'lim fanlarini o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Shu sababli bunday tarbiya jarayonini muvofiqlashtirib borish "Tarbiya" fani zimmasiga yuklanadi.

Bundan tashqari, boshlang'ich sinflarda istisno tariqasida estetik, aqliy va jismoniy rivojlanishni nazarda tutuvchi tarbiyaviy tadbirlar maqsadli o'tkaziladi, shuningdek, bayramlar va tantanalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy tarbiyasi amalga oshiriladi. Bu jarayonni tashkil etish va amalga oshirish ishlari "Tarbiya" fani vositasida amalga oshiriladi, unda mazkur fan o'qituvchisi va Sinf rahbari mas'ul hisoblanadi.

Bularning barchasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining oliy pedagogik ta'lim jarayonida "Tarbiya" fanini o'qitish zaruriyati, uning asoslarini o'zlashtirish va o'zlashtirilgan ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini egallashi taqozo etiladi. Shu sababli "Boshlang'ich ta'limda

“Tarbiya” fanini o’qitish metodikasi” o’quv fani bo’yicha o’zlashtiriladigan nazariy bilim, didaktik ko’nikma va amaliy kompetentsiyalar bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari uchun birlamchi talablar hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur bilim, ko’nikma va kompetentsiyalarni shakllantirish, ularni talabalarda tarkib toptirish va talabalarni kasbiy yo’naltirish masalalari ushbu fan vositasida amalsha oshirilishi ishlari tashkil etilmoqda. Kelgusida ushbu fanni o’zlashtirish natijalari bo’yicha bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kompetentsiya darajasini aniqlash monitoringi o’rnatiladi.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Tarbiya” fani bo’yicha quyidagi malakalarga ega bo’lishi taqoza etiladi:

- a) fan asoslari bo’yicha nazariy-kasbiy bilimli bo’lish;
- b) fanni o’qitish metodikasi bo’yicha ko’nikmaga ega bo’lish;
- v) fan vositasida boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tarbiyalash kompetentsiyasini egallashi.

Mazkur masalalar oliy pedagogik ta’lim jarayonida o’zlashtirilishi taqoza etiladi.

Boshlang’ich sinf o’qituvchilarining tarbiya jarayoni muhim pedagogik masalalardan biri bo’lib, unda o’qituvchi hozirgi talablarni hisobga olishi kerak. Shu jihatdan yuqorida ta’kidlangan Qarorda belgilanganidek, “Tarbiya” fanini o’qitishda quyidagilarga e’tibor berish va ularni o’zlashtirish zaruriyat hisoblanadi:

- davlat ta’lim standartlari talablari asosida o’qituvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko’nikma, malaka va kompetentsiyalarning to’liq o’zlashtirilishiga erishish;
- o’qituvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o’qituvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;
- umumta’lim fanlarini o’qitishning printsipliy yangi metodologiyasi asosida tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash.

Bularning barchasi bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari tomonidan to’liq o’zlashtirilishi lozim.

Shunday qilib “Tarbiya” fani va unga oid me’yoriy hujjatlar oliy pedagogik ta’lim jarayonida talab darajasida o’zlashtirilishi taqoza etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T., O’zbekiston., 2012.

2. Karimov I. Turkiston umumiy uyimiz.// Bunyodkorlik yo'lidan.T.4.- T., O'zbekiston, 1995.
3. Sh.Sh. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson huquqlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: –O'zbekistonII, 2017.
3. Choriyev A. Inson falsafasi. –T., Yangi avlod. 2004, 223 b.
4. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -T. : «O'zbekiston», 2004.
5. X. Ibragimov Sh. Abdullaeva. Pedagogika. O'quv qo'llanma. -T.: Fan. 2006.